

RAQAMLI TRANSFORMATSIYAGA YO‘NALTIRILGAN ERP TIZIMLARINI JORIY ETISH ORQALI RAQAMLI IMKONIYATLARNI KENGAYTIRISH

Azizov Abdulla Abdisalamovich

TDIU mustaqil tadqiqotchi

Tel: +998 55 902 22 22

Annotatsiya

Ushbu maqolada ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga ERP, DMS va AIS kabi axborot tizimlarini joriy etishning samarali yo‘llari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarni qo‘llash natijasida korxonalarda ish jarayonlari optimallashtiriladi, xarajatlar kamayadi hamda mahsulot sifati oshadi. Shuningdek, moliyaviy nazoratning kuchayishi va hujjat aylanishining xavfsizligini ta‘minlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot davomida texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy afzalliklari aniqlanib, ularni samarali qo‘llash bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ERP tizimi, raqamli texnologiyalar, boshqaruv, samaradorlik, ishlab chiqarish.

Аннотация

В данной статье проанализированы эффективные подходы к внедрению информационных систем ERP, DMS и AIS в процессы производства и управления. Установлено, что использование цифровых технологий способствует оптимизации рабочих процессов, снижению издержек и повышению качества продукции. Кроме того, рассмотрены возможности усиления финансового контроля и обеспечения безопасности документооборота. В ходе исследования выявлены организационно-экономические преимущества внедрения технологий, а также представлены практические рекомендации по их эффективному применению.

Ключевые слова: система ERP, цифровые технологии, управление, эффективность, производство.

Abstract

This article analyzes effective approaches to implementing ERP, DMS, and AIS information systems in production and management processes. It is established that the use of digital technologies contributes to process optimization, cost reduction, and improved product quality. Furthermore, the study examines the enhancement of financial control and the security of document flow. The research identifies the organizational and economic benefits of technology implementation and provides practical recommendations for their efficient application.

Keywords: ERP system, digital technologies, management, efficiency, production.

KIRISH

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash bilan ish jarayonlarini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini

oshirish yo'llari ko'p o'rganilmoqda. Turli tizimlar yordamida korxonalarda hujjatlarni boshqarish, moliyaviy ko'rsatkichlarni nazorat qilish va ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini birlashtirish imkoniyati yaratilmoqda.

Elektron hujjat aylanish tizimlari ishchi hujjatlarni tezkor tartibga keltiradi, qog'oz sarfini kamaytiradi va ma'lumotlarning yo'qolishini oldini oladi. Moliyaviy boshqaruv tizimlari esa mablag'lar oqimini kuzatishga, xarajatlarni aniq rejalashtirishga va resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi.

Raqamli yechimlar ish jarayonlarini tezlashtiradi, rahbarlarga barcha kerakli ma'lumotlarni bir vaqtda ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, texnologiyalar yordamida mahsulot yetkazib berish muddatlari qisqaradi, xizmat ko'rsatish sifati oshadi va korxonalar o'z faoliyatini takomillashtirishga erishadi.

Shu sababli, ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning tajribaviy jihatlarini o'rganish amaliyot nuqtai nazaridan foydali bo'lib, korxonalarni samarali boshqarishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli transformatsiya bugungi kunda korxonalar uchun nafaqat texnologik yangilanish, balki raqobatbardoshlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim yo'nalishiga aylangan. Shu bois, ko'plab ilmiy tadqiqotlar korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etishning turli jihatlarini yoritishga bag'ishlanmoqda. Tadqiqotlarni umumiy tahlil qilish orqali raqamli transformatsiya jarayonining asosiy yo'nalishlari va muvaffaqiyat omillarini chuqur tushunish imkonini beradi.

Avvalo, Suntsova (2022) o'z ishida raqamli transformatsiyaning nazariy asoslarini yoritib, Industry 4.0 va 5.0 tushunchalarini chuqur tahlil qiladi. Muallifning fikricha, aqlli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarni keng qo'llash nafaqat texnologik jarayonlarni, balki tashkilotning boshqaruv modelini ham tubdan o'zgartiradi. Shu orqali korxonalar innovatsion rivojlanish yo'liga o'tib, samaradorlikni oshiradi [1].

Boshqa bir tadqiqotda Yakovenko va Shaptala (2024) raqamli transformatsiyaning yangi bosqichi – raqamli egizak (Digital Twin) texnologiyalarini tahlil qilgan. Ularning ishida DT texnologiyasi yordamida resurslardan samarali foydalanish, energiya tejash va chiqindilarni kamaytirish orqali korxonalarning barqaror rivojlanishga erishishi mumkinligi asoslab berilgan. Bu esa raqamli transformatsiya jarayonining ekologik jihatlarini ham yoritib beradi [2].

Shuningdek, korxonalarda elektron hujjat aylanish tizimlari (DMS)ning joriy etilishi ham raqamli transformatsiyaning muhim qismi sifatida ko'riladi. Jordan va hammualliflar (2022) tadqiqotida DMSning kompaniyalarda samarali ishlashga ta'siri, jarayonlarning tezlashishi, qog'oz xarajatlarini kamaytirish va ekologik barqarorlikni oshirishga xizmat qilishi alohida ta'kidlangan [3]. Bu natijalar bugungi kundagi ko'plab tashkilotlarda DMSni joriy etishga bo'lgan ehtiyojni ilmiy asoslaydi.

Moliyaviy boshqaruv sohasida esa Nurul (2025) Accounting Information Systems (AIS)ning rolini yoritib, ushbu tizimlar orqali moliyaviy nazoratni kuchaytirish, hisobot sifatini oshirish va ichki ish jarayonlarining shaffofligini ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi. Bu esa, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim poydevor hisoblanadi [4].

Raqamli transformatsiyaning asosiy ustunliklaridan yana biri zamonaviy texnologiyalar – Blockchain, sun'iy intellekt (AI) va IoT kabi vositalarni qo'llash orqali tashkilotning umumiy samaradorligini oshirishdir. Samuel AnbuSelvan va Deepthi Nivasini (2021) o'z tadqiqotida aynan ushbu texnologiyalar yordamida ta'minot zanjiri monitoringi, ma'lumotlar xavfsizligi va jarayonlarni avtomatlashtirish samaradorligi oshishini ilmiy jihatdan asoslab beradi [5].

Pandemiya davrida raqamli transformatsiya jarayonlari yanada tezlashgani ham ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan. Masalan, Sachini (2020) Yunoniston kompaniyalari tajribasini o'rganib, ERP, CRM va kiberxavfsizlik tizimlarini joriy etish orqali kompaniyalar o'z faoliyatini barqarorlashtirganini ko'rsatgan [6]. Bu tajriba ko'plab sohalar uchun foydali namuna bo'la oladi.

Sog'liqni saqlash sohasida esa Pambala (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotda SAP texnologiyalarining bemor markazlashgan xizmat ko'rsatish tizimlarini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Tadqiqot natijalari bu texnologiyalar yordamida xizmat sifati, ma'lumotlar xavfsizligi va jarayon samaradorligi qanday oshishini ko'rsatadi [7].

Yana bir muhim jihat shuki, Kabachenko va hammualliflar (2023) tomonidan o'rganilganidek, korxonalar anti-inqiroz boshqaruvini raqamlashtirish orqali o'z faoliyatini barqarorlashtirishga erishmoqda. Bu ishda turli o'lchamdagi kompaniyalarda texnologiyaga sarmoya kiritish samaradorligi va boshqaruv strategiyalari yoritilgan [8].

Yuqorida tahlil qilingan adabiyotlar raqamli transformatsiyaning korxonalar faoliyatida tutgan o'rni tobora ortib borayotganini yaqqol namoyon etadi. Turli tadqiqotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va xarajatlarni kamaytirish, balki barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va strategik boshqaruvni kuchaytirishning asosiy omiliga aylanmoqda. Industry 4.0 va 5.0, raqamli egizaklar, DMS, AIS, ERP kabi tizimlar, shuningdek, AI, IoT, Blockchain texnologiyalarining integratsiyasi tashkilotlar samaradorligini tubdan oshirishga xizmat qilmoqda. Xususan, inqirozga qarshi boshqaruvda raqamli transformatsiya korxonalar barqarorligini ta'minlovchi muhim vosita sifatida o'zini namoyon qilgan. Shu bois, raqamli texnologiyalarni har tomonlama tadqiq etish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha kompleks yondashuv zarurati yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, sifatli tahlil va statistik kuzatuvlar tashkil etadi. Avvalo, ilgari o'rganilgan adabiyotlar tahlil qilinib, raqamli transformatsiya jarayonining asosiy yo'nalishlari aniqlangan. Keyinchalik, amaliy misollar orqali ERP, DMS va AIS tizimlarining korxonalar samaradorligiga ta'siri o'rganilgan. Grafik va jadval asosida texnologiyalarni joriy etish dinamikasi kuzatilib, korxonalar uchun muhim muvaffaqiyat omillari belgilab berilgan. Shu orqali, raqamli transformatsiya jarayonining kompleks xarakteri ilmiy asoslangan holda yoritilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida olib borilgan chuqur tahlillar shuni ko'rsatdiki, korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonining samarali amalga oshirilishi ko'p bosqichli, tizimli va ilg'or texnologiyalarni kompleks joriy etishga asoslanadi. ERP tizimlari joriy etilgan kompaniyalarda ishlab chiqarish jarayonlari, moliyaviy boshqaruv, mijozlar bilan ishlash tizimlari hamda ta'minot zanjiri kabi asosiy funksiyalar bir butun tizimga integratsiya qilinib, samaradorlikning sezilarli oshishi kuzatilmoqda [1][3].

Avvalo, ERP tizimlarining asosiy afzalliklari sifatida jarayonlarning avtomatlashtirilishi, inson xatosi xavfining kamayishi va real vaqt rejimida ma'lumotlarni monitoring qilish imkoniyatining yaratilishi ko'rsatib o'tildi. Shu orqali rahbariyat ishlab chiqarish, moliyaviy ko'rsatkichlar, resurslardan foydalanish samaradorligi va mahsulot sifati bo'yicha qarorlarni tezkor va asosli tarzda qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Masalan, ishlab chiqarish korxonalarida ERP tizimlari yordamida buyurtmalarni qayta ishlash, omborxonada boshqaruv va yetkazib berish jarayonlari o'rtasidagi aloqalar bir tizimga integratsiya qilinib, xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarish muddatlarini qisqartirishga erishilgan [1][2].

Elektron hujjat aylanish tizimlari (DMS)ning joriy etilishi esa, nafaqat ichki ish jarayonlarining tezkorligini ta'minlamoqda, balki hujjatlarning ishonchligi, xavfsizligi va saqlanish muddatini uzaytirish imkonini bermoqda. Jordan va hammualliflar (2022) o'z tadqiqotlarida DMSning kompaniyalarda joriy etilishi orqali ishchi jarayonlarning takrorlanuvchi vazifalarini avtomatlashtirish, xodimlarning ortiqcha ish yukini kamaytirish va ekologik samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlab o'tishgan [3]. Bu jarayon, ayniqsa, qog'oz xarajatlarini kamaytirish, arxivlash jarayonlarini optimallashtirish va hujjatlarning bir nechta xodim tomonidan bir vaqtning o'zida ishlatilishini tashkil etish imkoniyatlarini yaratadi.

Moliyaviy boshqaruv sohasida AIS tizimlarining joriy etilishi korxonalariga moliyaviy ko'rsatkichlarni doimiy nazorat qilish, aniq va ishonchli hisobotlarni shakllantirish va moliyaviy resurslarni optimal boshqarishga imkon bermoqda. Nurul (2025) tadqiqotida bu tizimlar orqali moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligi oshgani, qaror qabul qilish jarayonlari tezlashgani va korxonalarda ichki nazorat kuchaygani qayd etilgan [4]. Shu bilan birga, AIS tizimlari rahbariyatga moliyaviy tavakkalchiliklarni oldindan baholash va xarajatlarni strategik boshqarish imkoniyatini ham yaratadi.


Shuningdek, tadqiqot davomida korxonalarda ilg'or texnologiyalar, jumladan, Blockchain, sun'iy intellekt (AI) va Internet of Things (IoT)ning joriy etilishi raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirayotganligi aniqlandi. Samuel AnbuSelvan va Deepthi Nivasini (2021) tomonidan olib borilgan tadqiqotda ushbu texnologiyalar orqali ta'minot zanjiri monitoringi, ma'lumotlar xavfsizligini mustahkamlash va biznes jarayonlarni avtomatlashtirish imkoniyatlari ochilgani ta'kidlanadi [5]. Shu orqali korxonalar nafaqat ichki samaradorlikni oshirmoqda, balki yangi raqobat ustunliklarini ham yaratmoqda.

Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, sog'liqni saqlash sohasida SAP texnologiyalarini joriy etish orqali bemor markazlashgan xizmat ko'rsatish tizimlari yanada samarali

ishlay boshlagan. Pambala (2025) tomonidan olib borilgan ishlar natijalariga ko‘ra, ushbu tizimlar orqali bemor ma’lumotlari xavfsizligi kuchaygan, tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati oshgan va elektron hujjatlar orqali ishchi jarayonlar tezlashgan [7]. Bu esa xizmat ko‘rsatish jarayonida bemor ehtiyojlariga yanada moslashuvchan yondashuvni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Pandemiya davrida esa ko‘plab korxonalar o‘z faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etishga urg‘uni kuchaytirgani, ERP, CRM, kiberxavfsizlik tizimlarini jadallashtirilgan holda tatbiq qilgani kuzatildi. Sachini (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Yunoniston kompaniyalari o‘z faoliyatida ERP, CRM va kiberxavfsizlik yechimlarini keng qo‘llash orqali raqamli infratuzilmasini mustahkamlashga erishgan [6]. Shu jarayon davomida ularda texnologik tayyorgarlik, xodimlarni o‘qitish va tashkiliy moslashuv asosiy omillar sifatida ajralib chiqqan.

Tahlil davomida olib borilgan statistik kuzatishlar ham raqamli transformatsiyaning korxonalar faoliyatiga ijobiy ta’sirini tasdiqlaydi. Jumladan, ERP, DMS va AIS tizimlarini joriy etgan korxonalar ulushi yildan yilga ortib bormoqda. Bu tendensiyaning quyidagi grafikda ko‘rish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Raqamli texnologiyalarni joriy etish trendi¹

Ushbu grafikdan ko‘rinib turibdiki, 2020-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda ERP tizimlarini joriy etgan korxonalar ulushi 25 foizdan 79 foizgacha oshgan. Xuddi shunday, DMS va AIS tizimlari bo‘yicha ham barqaror o‘sish kuzatilmoqda. Bu jarayon korxonalarining ichki jarayonlarni takomillashtirish, xarajatlarni qisqartirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va yangi raqobatbardosh afzalliklarni qo‘lga kiritishga intilayotganining yaqqol dalilidir.

¹ Muallif ishlanmasi

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli transformatsiya korxonalar faoliyatining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda va u nafaqat texnologik jarayonlarni, balki korxonaning boshqaruv modeli, tashkiliy tuzilmasi va korporativ madaniyatini ham o'zgartirishga sabab bo'lmoqda. Shu asosda ishlab chiqilgan tavsiyalar korxonalarga raqamli transformatsiya jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish, texnologik yangiliklarni izchil tatbiq qilish va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi mumkin. Shu jihatdan, 1-rasmda ko'rsatilgan raqamli texnologiyalarni joriy etish trendi ushbu o'zgarishlarning statistik asoslangan dalili sifatida tadqiqotning empirik bazasini mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, raqamli transformatsiya jarayoni korxonalar faoliyatining barcha jihatlariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. ERP, DMS va AIS kabi tizimlarni joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va moliyaviy boshqaruvning shaffofligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ilg'or texnologiyalar – sun'iy intellekt, IoT, Blockchain kabi yechimlarning integratsiyasi tashkilotlarda tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlarini kuchaytirib, ma'lumotlar xavfsizligini oshirmoqda.

Boshqaruv tizimlarining takomillashuvi xodimlar ish yukini kamaytirib, jarayonlarni soddalashtiradi, hujjat aylanishini tezlashtiradi va kompaniya ichidagi muloqotni kuchaytiradi. Bu esa, tashkilotning ichki madaniyati, rahbariyat va xodimlar o'rtasidagi ishonchli aloqalarni rivojlantirishga ham zamin yaratadi. Raqamli transformatsiya, ayni paytda, ekologik samaradorlikni ta'minlab, qog'oz xarajatlarini qisqartirish orqali tabiiy resurslarni asrashga ham xizmat qilmoqda.

Shu asosda, korxonalarga bir nechta takliflar berish mumkin. Birinchidan, texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish, zamonaviy server, dasturiy ta'minot va xavfsizlik tizimlarini yangilash talab etiladi. Ikkinchidan, xodimlarning raqamli ko'nikmalarini oshirish bo'yicha muntazam o'quv dasturlarini tashkil qilish zarur. Uchinchi taklif, tashkilot ichida o'zgarishlarga tayyorgarlikni mustahkamlash, xodimlarni yangi tizimlarga moslashtirish jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini yo'lga qo'yishdir.

To'rtinchidan, raqamli transformatsiya jarayonida rahbariyatning faol ishtiroki va strategik qarorlar qabul qilishda texnologiyalarni asosiy tayanch sifatida ko'rishi muhim. Beshinchidan, tashkilotlar faoliyatida bosqichma-bosqich joriy etish usulidan foydalanish, ya'ni kichik pilot loyihalarni sinovdan o'tkazib, muvaffaqiyatli yechimlarni keng miqyosda tatbiq etish tavsiya qilinadi.

Raqamli transformatsiya korxonalarining barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligini oshirishi va xizmat ko'rsatish sifatini yuqori bosqichga olib chiqishi uchun kuchli asos bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, ilmiy yondashuv, kompleks rejalashtirish va innovatsion texnologiyalarni izchil joriy etish raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Shu orqali korxonalar nafaqat ichki jarayonlarni yaxshilash, balki umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirib, xalqaro bozorda mustahkam o'rin egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Suntsova, O. (2022). The definition of smart economy and digital transformation of business in the concepts Industry 4.0 and 5.0. *Technology Audit and Production Reserves*, 4(4), 00–00. <https://doi.org/10.15587/2706-5448.2022.265105>
2. Yakovenko, Y., & Shaptala, R. (2024). Study of digital twins as the driving force of digital transformation and achieving the goals of sustainable development. *Technology Audit and Production Reserves*, 2(4), 11–20. <https://doi.org/10.15587/2706-5448.2024.301423>
3. Jordan, S., Sternad Zabukovšek, S., & Šišovska Klančnik, I. (2022). Document Management System – A Way to Digital Transformation. *Naše Gospodarstvo / Our Economy*, 68(2), 43–54. <https://doi.org/10.2478/ngoe-2022-0010>
4. Nurul. (2025). The Role of Accounting Information Systems in Improving the Efficiency and Quality of Financial Reports. Unpublished manuscript. <https://ssrn.com/abstract=5249175>
5. Samuel AnbuSelvan, S. C. B., & Deepthi Nivasini, K. (2021). The Impact of Innovative Technology and Autonomous Agents on Digital Transformation with Special Reference to Blockchain, IoT and AI. *Sambodhi*, 44(1), 63–66. <https://ssrn.com/abstract=3890103>
6. Sachini, E. (2020). Digital Transformation of Greek Enterprises: The Impact of the COVID-19 Pandemic. National Documentation Centre. <https://metrics.ekt.gr/research-development>
7. Pambala, T. R. (2025). Integration of SAP Healthcare Solutions: Advancing Digital Healthcare Delivery and Patient-Centered Care. *International Journal of Computer Engineering & Technology*, 16(1), 220–230. https://doi.org/10.34218/IJCET_16_01_020
8. Kabachenko, D., Korolenko, O., Kutova, N., Churikanova, O., & Shchokin, R. (2023). Implementation of Digitization for Anti-crisis Management of Business Entities. *Economic Affairs*, 68(01s), 361–369. <https://doi.org/10.46852/0424-2513.1s.2023.39>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, iyun, 6-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. GOCT 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**